

X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIVAVIY NATIJALARI


2025- yil yanvar-may

1. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
2. Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati
3. Korxonalar va tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi holati
4. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha tushuntirishlar

1. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

Yakuniy moliyaviy natijalarning yillar bo'yicha dinamikasi

(yanvar-may oylarida, mlrd so'm)




Foydaning o'sishi va kamayishi

Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar va tashkilotlar tomonidan **5 744,8** mlrd so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2024- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foyda hajmi **163,7** mlrd so'm yoki **2,4** % ga ko'paygan.

Foydaning yillar bo'yicha dinamikasi

(yanvar-may oylarida, mlrd so'm)



2025- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar

	<i>Foyda, zarar (-), mlrd so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-mayga nisbatan %da</i>
Jami	5744,8	106,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	37,3	28,5m.
Ishlab chiqaradigan sanoat	6085,1	113,7
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-324,4	-
Qurilish	5,5	21,4
Savdo	-68,1	-
Tashish va saqlash	18,2	2,0 m.
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-11,1	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	6,9	73,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17,4	151,5
Boshqalar	-16,3	-

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (6 085,1 mlrd so'm), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (37,3 mlrd so'm), tashish va saqlash (18,2 mlrd so'm) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (17,4 mlrd so'm) sohalaridagi korxonalariga to'g'ri keldi.

Foydaning asosiy pasayishi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 228,2 mlrd so'm, ta'limda – 31,2 mlrd so'm va qurilish sohasida – 22,2 mlrd so'm kuzatilgan.

Eng yuqori foyda ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (6 085,1 mlrd so'm), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (37,3 mlrd so'm), tashish va saqlash (18,2 mlrd so'm) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (17,4 mlrd so'm) sohalaridagi korxonalariga to'g'ri keldi.

2025- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida
yakuniy moliyaviy natijalar

	<i>Foyda, zarar (-), mlrd so‘m</i>	<i>2024- yil yanvar-mayga nisbatan %da</i>
Viloyat bo‘yicha:	5744,8	106,5
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	-15,0	-
Olmaliq	5977,1	117,4
Angren	-67,6	44,3
Bekobod	-7,1	-
Ohangaron	-202,7	135,1
Chirchiq	94,9	126,0
Yangiyo‘l	6,8	45,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo‘rg‘on	0,8	-
Ohangaron	-372,3	29,8 m.
Bekobod	0,6	-
Bo‘stonliq	-116,8	-
Bo‘ka	-3,0	4,6 m.
Quyichirchiq	-3,2	78,7
Zangiota	66,8	127,8
Yuqorichirchiq	18,9	82,0
Qibray	247,3	2,2 m.
Parkent	2,3	27,8
Piskent	-38,8	-
O‘rtachirchiq	11,3	139,1
Chinoz	8,0	161,8
Yangiyo‘l	48,7	39,0
Toshkent	88,2	110,8


Zararlar. 2025- yilning yanvar-may oylarida **95** ta korxonalar va tashkilotlar **1 319,9** mlrd so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

2025- yilning yanvar-mayoylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar summasi	
		mlrd so'm	jamiga nisbatan %da
Jami	95	1319,9	100
Ishlab chiqaradigan sanoat	30	578,5	43,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	8	351,4	26,6
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	20	194,4	14,7
Ta'lim	4	5,5	0,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat	4	1,3	0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	17,1	1,3
Boshqalar	26	171,7	13,0

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida moliyaviy natijasi zarar bilan yakunlangan korxonalarining asosiy qismi, ya'ni **578,5** mlrd so'mi (**43,8 %**) ishlab chiqaradigan sanoat hamda **351,4** mlrd so'mi (**26,6 %**) elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasidagi to'g'ri keldi.

2025- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi % da




2025- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko'rgan korxonalarining ulushi, % da</i>	<i>Zarar summasi, mlrd so'm</i>
Toshkent viloyati	95	100,0	1319,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	6	6,3	22,3
Olmaliq	2	2,1	7,2
Angren	11	11,6	137,4
Bekobod	4	4,2	24,7
Ohangaron	4	4,2	233,7
Chirchiq	7	7,4	97,4
Yangiyo'l	2	2,1	2,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1	1,1	0,0
Ohangaron	6	6,3	510,8
Bekobod	1	1,1	0,0
Bo'stonliq	6	6,3	145,1
Bo'ka	2	2,1	3,0
Quyi Chirchiq	1	1,1	3,5
Zangiota	7	7,4	4,3
Yuqori Chirchiq	6	6,3	12,6
Qibray	5	5,3	51,1
Parkent	3	3,2	1,8
Pskent	3	3,2	49,6
O'rta Chirchiq	1	1,1	0,2
Chinoz	3	3,2	0,7
Yangiyo'l	9	9,5	11,5
Toshkent	5	5,3	0,2

2. Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati

Korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi dinamikasi

(1- iyun holatiga, mlrd so'm)



Hududlar kesimida debitor qarzdorlikning asosiy qismi Olmaliq shahar – **23 036,1** mlrd so‘m (*viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 57,6 foizi*), Qibray tumani – **3 781,3** mlrd so‘m (*9,5 %*), Chirchiq shahar – **2 371,3** mlrd so‘m (*5,9 %*), Bekobod shahar – **1 889,2** mlrd so‘m (*4,7 %*), Angren shahar – **1 837,9** mlrd so‘m (*4,6 %*), Ohangaron tumani – **1 210,5** mlrd so‘m (*3,0 %*), Piskent tumani – **1 014,0** mlrd so‘m (*2,5 %*) va Ohangaron shahar – **863,2** mlrd so‘m (*2,2 %*) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha debitor qarzdorlikning eng ko‘p ulushi suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – **27,8 %** (*jami qarzdorlikdan*), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda – **10,7 %**, professional, ilmiy va texnik faoliyatda – **6,3 %**, tashish va saqlashda – **6,2 %**, qurilishda – **3,8 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyatlari bo‘yicha debitor qarzdorlikning tarkibi

(2025- yil 1- iyun holatiga)


	Debitor qarzdorlik, mlrd so‘m	shundan, muddati o‘tgan qarzdorlik ulushi, % da
Jami	39 997,6	1,4
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	538,5	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	33 259,9	0,4
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	2 380,6	10,7
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	252,5	27,8
Qurilish	395,3	3,8
Savdo	1 496,0	0,02
Tashish va saqlash	81,2	6,2
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	189,0	0,2
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	31,6	6,3
Boshqalar	1373,0	3,5

3. Korxonalar va tashkilotlarning kreditorlik qarzdorligi holati

2025- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, kreditor qarzdorlikning umumiy miqdori **24 129,7** mlrd so‘m, shundan muddati o‘tgan – **407,2** mlrd so‘m (*jami kreditor qarzdorlikning 1,7 foizi*)ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi dinamikasi

(1- iyun holatiga, mlrd so‘m)



2025- yilning 1- iyun holatiga kreditor qarzdorlikning asosiy qismi yetkazib ishlab chiqaradigan sanoatga – **14 726,7** mlrd so‘m (*jami qarzdorlikning 61,0 foizi*), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – **4 499,7** mlrd so‘m (*18,6 %*), savdoda – **2 655,7** mlrd so‘m (*11,0 %*) va tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – **627,2** mlrd so‘m (*2,6 %*)ga to‘g‘ri keldi.

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik 2024- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda **26,3 %** ga ko‘paygan.

Hududlar kesimida kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Qibray tumani – **4 962,8** mlrd so‘m (*20,6 %*), Olmaliq shahar – **4 379,8** mlrd so‘m (*18,2 %*), Chirchiq shahar – **3 866,0** mlrd so‘m (*16,0 %*), Ohangaron tumani – **2 685,6** mlrd so‘m (*11,1 %*), Angren shahar – **2 328,7** mlrd so‘m (*9,7 %*), Zangiota tumani – **1 286,0** mlrd so‘m (*5,3 %*) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Zangiota tumanida – **166,3** mlrd so‘m, Chirchiq shahrida – **134,8** mlrd so‘m, Nurafshon shahrida – **46,2** mlrd so‘m, Olmaliq shahrida – **25,1** mlrd so‘m va Ohangaron tumanida – **24,5** mlrd so‘mni tashkil etdi.

4. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi statistik ko‘rsatkichlar bo‘yicha tushuntirishlar

Moliyaviy natijalar, debitor va kreditor qarzdorlikning har oylik asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) 12-moliya (oylik) “Tashkilotning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida hisobot”ni taqdim etuvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxs hisoblanuvchi tijorat tashkilotlari hamda ularning mulkiga ega bo‘lgan, mulkni xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqaruvga olib, ushbu mulk bilan o‘z majburiyatlariga javob beruvchi, shuningdek, soliq qonunchiligiga asosan mustaqil balansga va hisob raqamiga ega bo‘lgan soliq to‘lovchi alohida bo‘linmalari ma‘lumotlari bo‘yicha;

b) budget va boshqa notijorat tashkilotlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ko‘rsatkichlari kiritilmagan;

d) “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va “Uzbekistan Airways” AJ tarkibiy bo‘linmalarining ma‘lumotlari hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan;

e) qarzdorlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar avvalgi yillardan o‘tib kelayotgan qarzlarni qo‘shgan holda, hisobot davridan keyingi oyning 1- sanasi holatiga shakllantirilgan.